

## TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Yorqinoy Tojimurodovna Axmadjonova, Umida Tojimurodovna Axmadjonova

Jizzax politexnika instituti, Jizzax, O'zbekiston

E-mail: [yorqinoy.axmadjonova@bk.ru](mailto:yorqinoy.axmadjonova@bk.ru), [umida.axmadjonova@bk.ru](mailto:umida.axmadjonova@bk.ru)

**Annotatsiya.** bugungi kun o'qituvchisi o'z kasbining bilimdoni bo'lishiga qaramay zamon bilan ham nafas bo'lishi lozim. Bugungi yoshlarimiz qiziquvchan, yangi texnologiyalarni juda yaxshi foydalana olishadi. Ularni darsga qiziqtirish, dars jarayonida innovatsion texnologiyalar hamda interfaol metodlardan foydalanib darsni qiziqarli tashkil etish o'qituvchidan katta mas'uliyat talab etadi. Bugungi zamonaviy o'qituvchi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) o'z darsida qo'lay olishi lozim. Dars jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish dars jarayonini qiziqarli, o'quvchilarni faol hamda darsni tez o'zlashtirishiga yordam beradi. Shu sababli, hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto hulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

***Kalit so'zlar:** ta'lim, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiya, dars, axborot texnologiya.*

## THE IMPORTANCE AND POSSIBILITIES OF DISTANCE EDUCATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Yorqinoy Tojimurodovna Axmadjonova, Umida Tojimurodovna Axmadjonova

Jizzakh Polytechnic Institute, Jizzakh, Uzbekistan

E-mail: [yorqinoy.axmadjonova@bk.ru](mailto:yorqinoy.axmadjonova@bk.ru), [umida.axmadjonova@bk.ru](mailto:umida.axmadjonova@bk.ru)

**Abstract.** today, the teacher must breathe even with the times, despite the fact that he is a connoisseur of his profession. Our young people today are curious, able to use new technologies very well. To interest them in the lesson, innovative technologies in the course of the lesson, as well as an interesting organization of the lesson using interactive techniques, requires a lot of responsibility from the teacher. Today's modern teacher should be able to apply information communication technologies (ICT) in his lesson. The organization of the course process on the basis of innovative technologies will help to make the course process interesting, active and quickly master the course. Therefore, nowadays, interest in the application of innovative technologies, pedagogical and information technologies in the educational process, attention is gaining strength day by day, one of the reasons for this is that until then, in traditional education, students-students are taught to acquire only ready-made knowledge, while modern technologies teach them to search for the knowledge they are acquiring, independently study and analyze, In this process, the teacher creates conditions for the development, formation, acquisition and upbringing of an individual, and at the same time performs the function of stewardship, orientation.

***Keywords:** education, innovative technologies, pedagogical technology, lesson, information technology.*

Ayni paytda mamlakatimizda ta'lim sohasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish borasidagi barcha ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham shu. Bu borada Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Innovatsion rivojlanish vazirligi ta'lim muassasalariga zarur ko'makchi vazifasini bajarib kelmoqda. Zero, "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish Strategiyasi"da [1] Innovatsion rivojlanish vazirligiga o'quv-tarbiya jarayoniga yangi

ta'lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o'qitishni joriy etish) vazifasi yuklatilgan. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan respublikada ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Ta'lim muassasalarida mavjud hamda elektron shaklga o'tkazilgan kitoblarning foydalanuvchilarga qulay bo'lishi uchun (QR-book) platformasi yaratildi. Innovatsion kutubxona platformasi yaratildi. Innovatsion kutubxona platformasi bir qator oliy ta'lim muassasalarini ham qamrab olgan. Mazkur platforma orqali 17 000 dan ortiq audio, video va elektron shakldagi adabiyotlarni yuklab olishingiz mumkin. Undan ta'lim muassasalarining 32 mingdan ortiq professor-o'qituvchilari va talabalari foydalanmoqda [2, b.45]. Yurtimizda mana shunday bir qancha ta'lim sohasida o'zgarishlar amalga oshirilmogda.

O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi-talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga, o'quv jarayonida o'qituvchi-talabalar mustaqil fikrlashiga, ijodiy ishlashiga, izlanishi, tahlil eta olishi, o'zi hulosa qila olishi, o'ziga, guruhga, guruh esa ularga baho bersa, o'qituvchi esa ularning bunday faolliklari uchun imkoniyat va sharoit yarata oladi. Bizning fikrimizcha ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi [3,b.823].

Bugungi kun o'qituvchisi o'z kasbining bilimdoni bo'lishiga qaramay zamon bilan ham nafas bo'lishi lozim. Bugungi yoshlarimiz qiziquvchan, yangi texnologiyalarni juda yaxshi foydalana olishadi. Ularni darsga qiziqtirish, dars jarayonida innovatsion texnologiyalar hamda interfaol metodlardan foydalanib darsni qiziqarli tashkil etish o'qituvchidan katta mas'uliyat talab etadi. Bugungi zamonaviy o'qituvchi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) o'z darsida qo'lay olishi lozim. Dars jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish dars jarayonini qiziqarli, o'quvchilarni faol hamda darsni tez o'zlashtirishiga yordam beradi.

Har bir dars, mavzu o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir [4,b.1564].

Shu sababli, hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormogda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa [5,b.977], zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto hulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ta'lim muassasalaridagi o'qitish usullari bilan tanishib, shuni aytishimiz mumkinki, vaqt, jumladan, ta'lim jarayoni ham to'xtamaydi. Yangi vaqt yangi qoidalarni belgilaydi. Yangi ta'lim dasturlari o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Ulardan foydalanish bilan mashg'ulotlar yanada qiziqarli va yorqinroq bo'ladi. O'quvchi-talabalarni ta'lim sifatini yaxshilashga ma'lum ta'lim natijalariga erishishga undaydi. Shubhasiz, innovatsion o'qitish usullari an'anaviy usullardan afzalliklarga ega, chunki ular o'quvchi-talabaning rivojlanishiga hissa qo'shadi, uni bilish va qaror qabul qilishda mustaqillikka o'rgatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.09.2018 yildagi "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5544-son farmoni. <https://lex.uz/docs/-3913188>.
2. Bo'riyev H. Usmonova Yu. "Ta'limda innovatsiyalar va u bilan bog'liq tushunchalarning pedagogik tavsifi"// 'Science and Education' Scientific Journal. June 2022 / Volume 3 Issue 6, 42-50.
3. Ахмаджонова, Ё. Т. (2020). PISA-таълим сифатини ошириш мезони. Аграр фан назарияси ва амалиётидаги долзарб муоммолар ва уларнинг ечимлари, 821, 824.

4.Axmadjonova, Y. T., Axmadjonova, U. T., & Yaxshiyeva, Z. Z. (2021). Ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1563-1567.

5.Axmadjonova, Y. T., & Axmadjonova, U. T. (2021). O'quv dars mashg'ulotlarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish. Science and Education, 2(11), 977-984.

